2001-yil fevral oyidan chiqa boshlagan

Buyuk kelajakni birga quramiz!

BUXORO YOSLARI

Ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, adabiy-badiiy gazeta

2026-YIL, NOYABR, № 21-22 (579-580)



BAYROĞIMIZ – ğururimiz va iftixorimiz

18-noyabr — Özbekiston Respublikasi Davlat bayroği qabul qilingan kun

Bu kurrayi zaminda ellar va elatlar köp. Ammo, har kim ham muqaddas ona tuproğida ardoqda yaşaş, öz Vatani bilan faxrlaniş, ğururlaniş baxtiga ega emas.

Gohida turli xorij davlatlarida tirikçilik uçun mehnat qilayotgan hamyurtlarimizning ijtimoiy tarmoqlarda Vatanimiz bayroğini ğurur bilan kötarib tuşgan surat va videolariga közimiz tuşganda, vujudimizda titroq, qalbimizda paydo böldi...

Uzoq yurtlarda turib ham mamlakatimizga bölgan ehtirom va işonçlarini yöqotmagan bunday yoşlarga “Barakalla!” deymiz. Ular Ona zaminining erku ozodligi timsoli bölgan bayroqni qöldan tuşirib yuborişni xiyonatdek qabul qilişadi.

Bundan taşqari, kuçli va jasur sportçilarimiz jahon arenalarida ğalaba naşidasini surayotgan çoğida ular ham Özbekiston xalqining dunyoda borligini, özига özi bekligi, jahon aro örniga egaligini namoyon etib, faxr bilan hilpiratişadi. Bu ğurur, bu juda gözal lahzalar!

Aytiş joizki, bayroq öz erki, ozodligiga ega mamlakatning timsoli. Jumladan, sohibqiron bobomiz Amir Temur şonli yurişlari oldidan laşkarlarini jangga hozirlar ekan, bayroqdorlariga alohida e’tibor qaratib, uni har qanday şaroitda ham tik tutişni uqtirgan. Bosqinçilarga qarşi kuraşga otlangan askarlarning jangovar holatiga bayroqning mağrur hilpiraşi juda katta ruhiy kuç va madad bergan. Şuning uçun ham bayroqdorlar jarohatlanganida ham uni qölidan qöymay, mahkam tutgan holda jon berişgan.

Bayroğimizga mantiqan tugallik bağişlagan Oyu, Yulduz, betakror rang va çiziqlar ilmi nujumga, ajdodlarimizning barhayot an’analariga sadoqatimizni anglatadi. Yoşlarimizni ezgulikka, yangi-yangi marralarga intilib yaşaşga çorlaydi. Şuning uçun ham yoşlarimiz har gal bayroğimizni kötarganda, qalblarini hayajon, iliqlik, şirin tuyğular qamrab oladi. Bu his ifodasini ularning közidan, quvonçli tabassumlaridan anglaş mumkin.

Davlatçiligimiz tarixining qaysi bir davrini olib qaramaylik, davlat ramzlari Vatan timsollari sifatida hamişa aziz va muqaddas sanalgan. Buyuk davlat barpo etiş ğoyasi mustaqilligimizning ilk kunlaridayoq qabul qilingan davlatimiz ramzlarida öz ifodasini topdi.

Davlatimiz bayroğining huquqiy asosi 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan “Özbekiston Respublikasining Davlat bayroği töğrisida”gi Qonun bilan mustahkamlandi. Öşa kundan e’tiboran, barça nufuzli tadbiru tantanalarda Davlat bayroğining kötarilişi, yoşlarning öng qölini köksiga qöyib, madhiyamizni kuylaşidan boşlanişi qalblarga Vatanga, davlatimiz ramzlariga nisbatan iliq munosabat paydo bölişiga olib keldi. Zero, vatanparvarman, degan har bir inson, eng avvalo, bebaho ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarimiz bölgan davlat ramzlarini bilişi, hurmat qilişi şart.

Şunga köra, “Özbekiston Respublikasining Davlat bayroği töğrisida”gi Qonuni 13-moddasida ta’kidlanganidek, “Özbekiston Respublikasining fuqarolari, şuningdek, Özbekistonda turgan boşqa şaxslar – Özbekiston Respublikasining Davlat bayroğini hurmat qilişlari şart”, yozib qöyilgan.

Şavkat Rahmonov,
Buxoro viloyat Yoşlar işlari boşqarmasi boşliği.



YANGI IMKONIYATLAR, BUNYODKORLIK VA ISTIQBOLLI TAŞABBUSLAR



Видеолавҳани QR орқали кўринг.

Özbekiston Respublikasi Yoşlar işlari agentligi direktori Alişer Sa’dullayevning Buxoro viloyatiga taşrifi hududlarda yoşlar siyosati samaradorligini oşirişga qaratildi. Taşrif davomida yoşlar uçun yaratilgan imkoniyatlar, istiqbolli loyihalar va taşabbuslarning amaliy ijrosi bilan yaqindan tanişildi.

Dastlab, Jondor tumanida qurilişi davom etayotgan Yoşlar markazi binosida olib borilayotgan bunyodkorlik işlari közdan keçirildi. Mazkur maskanlarning barpo etilişi yoşlarning böş vaqtini mazmunli taşkil etiş, ularning intellektual salohiyati, bilim va dunyoqaraşini yuksaltiriş, iste’dod va taşabbuslarini röyobga çiqariş yölida muhim qadam ekani ta’kidlandi.

Şuningdek, Boşqarma boşliği Şavkat Rahmonov tomonidan Profi baza texnik kadrlarni intensiv tayyorlaş markazining taqdimoti ötkazildi.

Taşrifning navbatdagi manzili Buxoro şahridagi “Amir Temir” mahallasida faoliyat yuritayotgan nemis tili markazi böldi. Bu yerda yoşlarning xorijiy tillarni örganişi, zamonaviy bilim va könikmalarni egallaşi uçun yaratilgan imkoniyatlar bilan tanişildi.

Markaz rahbariyati bilan muloqot davomida ta’lim sifati, öquv jarayonining samaradorligi, mavjud şaroitlar va kelgusidagi rivojlaniş rejalari muhokama qilindi.

“Kelajak bunyodkori” davlat mukofoti sohibi, “Bukhara Books” kitob dökoni rahbari Jahongir Bafoyevning zamonaviy me’moriy yeçimlar, kitobxonlar uçun yaratilgan qulayliklar va keng imkoniyatlarga ega yangi kitob dökoni faoliyati bilan tanişildi.

Ayniqsa, yoşlar qalbida kitobga mehr uyğotiş, mutolaa madaniyatini yuksaltiriş va ma’rifatli avlodni tarbiyalaş yölidagi bunday taşabbuslarning ahamiyati alohida e’tirof etildi.

Zarnigon Şukurova

@BY_GAZETASI

BUXORO YOŞLARI

YOŞLAR

Mahallalarda yoşlar bilan tizimli işlaş, ularning taşabbuslarini qöllab-quvvatlaş, bandligini ta’minlaş hamda böş vaqtlarini mazmunli taşkil etiş eng ustuvor vazifalardan biridir. Bu borada yoşlar yetakçilarining taşabbuskorligi, fidoyiligi va ular bilan hamjihatlikda olib borayotgan sa’y-harakatlari alohida ahamiyat kasb etmoqda.



Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi Beşrabot mahallasida jami **1340 nafar yoş** istiqomat qiladi. Şundan **14 yoşdan 30 yoşgaça bölganlar 610 nafarni taşkil etadi.** Mahalla yoşlar yetakçisi Mavlon Jalilov yoşlar bilan birgalikda bir qator muhim loyihalarni hayotga tatbiq etib kelinmoqda.

Davomi 3-betda

ULKAN IMKONIYATLAR VA YUKSAK TARAQQIYOT SARI

Muxtaram prezidentimiz Şavkat Mirziyoyevning Buxoro viloyatiga taşrifi va hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantiriş böyiça ilgari surgan yangi taşabbus va ustuvor vazifalar hamda kelgusidagi ulkan rejalarni katta qiziqiş va mamnuniyat bilan kuzatdim.

Taşrif natijalariga köra, viloyat iqtisodiyoti joriy yilda ilk bor 100 trillion sömlik marradan oşişi, iqtisodiy ösiş 10,1 foizni taşkil etişi kutilmoqda. Biroq, iqtisodiy ösiş bilan bir qatorda, uning sifat jihatidan yangi bosqiçga kötarilişi ham muhim. Keyingi uç yil davomida 28 milliard dollarlik sanoat loyihalarini amalga oşiriş imkoniyatining mavjudligi Buxoroning xalqaro iqtisodiy maydondagi örnini mustahkamlaşga ham xizmat qiladi.

Aytiş joizki, yoşlarning bilimli, zamonaviy kasb-hunarlarni egallagan, mustaqil fikrlaydigan, taşabbuskor va raqobatbardoş mutaxassislar bölib voyaga yetişi kelajak taraqqiyotining hal qiluvçi omilidir. Şu nuqtayi-nazardan, taşrifda maktab bitiruvçilarining 50 foizini texnikumlarga jalb etiş masalasi körib çiqildi. Texnikumlarni yirik tadbirkorlar va investorlar bilan boğlaş, viloyatdagi davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalarida dual ta’lim qamrovini ikki baravar oşiriş böyiça vazifalar belgilandi.

Demak, bugungi mehnat bozori diplomga ega böliş bilan birga, amaliy bilim, zamonaviy könikma, kasbiy mahorat va yangiça fikrlaşni talab qilmoqda. Ta’lim jarayonining işlab çiqariş bilan uzviy boğlanişi yoşlarning nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlaşiga kömak beradi. Bu yölda oliy ta’lim muassasalari oldida katta mas’uliyat turibdi. Bundan keyin ta’lim dargohlarining faoliyati faqat talabalar soni, ta’lim yönalişlari yoki diplom olgan bitiruvçilar bilan baholanmaydi.

Oliygohlar bitiruvçining egallagan kasbi böyiça işlaşi, jamiyatga naf keltirişi, yangi ğoyalar va innovasion taşabbuslar bilan iqtisodiyot rivojiga hissa qöşa olişidir.

Buxoro davlat Pedagogika instituti vakili sifatida ta’lim sohasidagi uşbu vazifalar menga ham bevosita daxldor, deb bilaman. Negaki, bugun pedagogika oliy ta’lim muassasalari zimmasida malakali öqituvçilar tayyorlaş hamda kelajak avlodni tarbiyalaydigan, jamiyat taraqqiyotiga ta’sir körsatadigan, yuksak intellektual salohiyatga ega kadrlarni şakllantirişdek mas’uliyatli vazifa mavjud.





Işonamanki, taşrif davomida rejalaştirilgan islohotlar bilan Buxoro zamonaviy iqtisodiyoti, rivojlangan infratuzilmasi, ilm-fan salohiyati va bilimli yoşlari bilan ham dunyo miqyosida munosib örin egallaydi.

Zero, buyuk tarixga ega Buxoroning kelajagi ham buyuk bölişi kerak!

Rustamjon Rahimboyev,
Xalq deputatlari Buxoro viloyati Kengaşi huzuridagi Yoşlar maslahat guruhi rahbari, Buxoro davlat Pedagogika instituti rektori yordamçisi.

BUXORO YOŞLARI
BUXORO-YOŞLARI.UZ
@BY_GAZETASI
2026-yil, noyabr, № 21-22

bilan birga YUTUQLAR SARI



Boşlanişi 2-betda

Mahalla infratuzilmasini yaxşilaş

“Taşabbusli budjet” loyihasi doirasida amalga oşirilgan işlar uşbu ezgu maqsadning yaqqol namunasidir. Yetakçi taşabbusi va yoşlar faolligi natijasida 2022-yilda qiymati 1 mlrd 280 mln sömlik 3,6 km içimlik suvi tarmoğini tortiş, 2024-yilda esa qiymati 1 mlrd 500 mln sömlik 3,2 km mahalla içki yöllarini asfaltlaştiriş loyihalari ilgari surildi va bu loyihalar ğolib, deb topildi. Mazkur loyihalarning hayotga tatbiq etilişi hududni obodonlaştirişga xizmat qildi.

Yoşlar bandligi e’tibor markazida


Yigit-qizlarning bandligini ta’minlaş mahalladagi eng asosiy yönalişlardan biri. Şu maqsadda yoşlarning qiziqişi, qobiliyati hamda mavjud imkoniyatlari muntazam örganilib, ularni kasb-hunarga örgatiş, işga joylaştiriş va tadbirkorlik faoliyatiga yönaltiriş böyiça amaliy çoralar körilmoqda.



Видеолавҳани QR орқали кўринг.

Jumladan, “E-Auksion” platformasi orqali 40 nafar yoşga 8 gektar ekin yeri olib berilib, ularning doimiy daromad manbayi yaratildi. Hozirda yoşlar boğdorçilik va oziq-ovqat mahsulotlari yetiştiriş orqali öz daromadlarini oşirmoqda. Bundan taşqari, 15 nafar yoş kasb-hunarga öqitildi, 22 nafari esa muqim iş örinlariga joylaştirildi. Şuningdek, öz biznesini boşlaş istagini bildirgan 10 nafar yoşga oilaviy tadbirkorlik yönalişida jami 177 mln 600 ming söm, yana 2 nafar yoşga esa PQ-60-sonli qaror doirasida jami 107 mln söm imtiyozli kredit ajratilib, tadbirkorlik faoliyatini yölga qöyişiga kömaklaşildi.

Uşbu taşabbuslarning boş maqsadi har bir yoşning öz imkoniyatlarini röyobga çiqarişi, munosib kasb egallaşi hamda jamiyatda öz örnini topişiga kömaklaşişdir.



Sport — soğlom va faol yoşlar garovi

Yoşlarning dars va işdan taşqari vaqtlarini mazmunli ötkaziş, ularni ommaviy sportga keng jalb etişni közlab, mahallada muntazam ravişda musobaqalar uyuştirilmoqda. Ayniqsa, tungi sport tadbirlari yoşlar orasida katta qiziqiş uyğotib, faollikni yanada oşirdi.

Tungi sport tadbirlari doirasida futbol, voleybol, şaxmat va stol tennisi böyiça ötkazilayotgan bellaşuvlarda 50 dan ortiq yoş doimiy iştirok etib kelmoqda. Bu esa yoşlarning sportga bölgan iştiyoqini mustahkamlab, soğlom turmuş tarzini tarğib qiliş va jamoaviy hamkorlikni mustahkamlaşda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoşlar loyihalari va taşabbuslari

Yoşlar işlari agentligi tomonidan yölga qöyilgan “Ibrat farzandlari”, “Qizlar akademiyasi”, “Uzçess”, “Mutolaa” va “Ustoz AI” kabi 5 ta mega loyiha mahallada keng tarğib qilinmoqda. Uşbu platformalar orqali Beşrabotda istiqomat qiluvçi 666 nafar (49,7 foiz) yoş qamrab olindi.

Yetakçilik faoliyatida asosiy e’tibor yoşlarning taklif va taşabbuslarini tinglaş, ularni amaliy loyihalarga yönaltiriş hamda mahalla hayotidagi muhim masalalarni birgalikda hal etişga qaratilgan. Har bir amalga oşirilgan loyiha, işli bölgan yoş yoki sport musobaqasida zafar quçgan iştirokçi olib borilayotgan işlarning amaliy samarasidir.

Kelgusidagi maqsadlar

Bugungi muvaffaqiyatlar tinimsiz izlaniş, taşabbus va hamjihatlikning mahsulidir. Kelgusida ham yoşlar bilan birgalikda yangi loyihalarni hayotga tatbiq etış, ularning iste’dod va imkoniyatlarini röyobga çiqariş hamda mahalla taraqqiyotiga munosib hissa qöşış borasidagi işlar izçil davom ettiriladi.

Zulfi ZAR

KOMIL INSON KAMOLOTI

Ta’lim va tarbiya yoş avlodni barkamol şaxs etib, voyaga yetkazişning egizak ustunlaridir. Maktab öquvçilariga faqatgina sifatli bilim beriş kifoya emas. Ularning qalbi va ongida yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni şakllantiriş, kattalarga hurmat, kiçiklarga izzat, Vatanga sadoqat hamda mas’uliyat hissini uyğotiş ayni damda eng dolzarb vazifadir. Bejiz muqaddas hadislarda: “Ota öz farzandiga yaxşi tarbiyadan köra afzalroq narsa bera olmaydi”,- deb ta’kidlanmagan.



Ta’lim va tarbiya uyğunligi

Bu muqaddas jarayonda maktab va oila ittifoqi alohida ahamiyat kasb etadi. Zotan, ziyo maskani yoşlarning dunyoqaraşini kengaytirib, intellektual salohiyatini yuksaltirişga xizmat qilsa, xonadon — farzand xulq-atvori, odobi va hayotiy qadriyatlarining poydevorini qöyadi. Buyuk mutafakkir Alişer Navoiy hazratlari aytganlaridek: “Ilm kişini kamolotga yetkazadi, odob esa uni jamiyatga tanitadi”. Şunday ekan, bu ikki böğin bir-biridan ayro yaşay olmaydi.

Ota-onalar va pedagoglar örtasida mustahkam köprik örnatilişi lozim. Millatimiz fidoyisi Abdulla Avloniyning: “Tarbiya biz uçun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo baxt — yo falokat masalasidir”, degan otaşin sözlari bugun ham har birimizni huşyorlikka çorlaşi lozim. Öquvçilarning yuriş-turişi, davomati, kiyiniş madaniyati hamda darsdan taşqari vaqtini mazmunli taşkil etiş masalalarida hamjihatlikda harakat qiliş şart. Uy va maktab örtasidagi uzviy aloqa yoşlarning ilmga bölgan iştiyoqini alangalatib, ularda temir intizom, qat’iy mas’uliyat va mustaqil fikrlaş könikmalarini çarxlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim va tarbiya bir-birini töldiruvçi, ajralmas va yaxlit jarayondir. Maktab, ota-ona va mahalla uçligining hamkorligi asosida olib boriladigan tizimli sa’y-harakatlargina ertangi kunimiz egalarining bilimli, odobli, vatanparvar va har tomonlama komil insonlar bölib voyaga yetişini kafolatlaydi.

Şohruh Xayriyev


BUXORO ÖTMIŞI aks etgan



1957-yil 20-yanvarda Buxoroda tuğilgan Şavkat Boltayev umrini suratlar orqali inson va jamiyat hayotini anglaşga bağişladi. Uning ijodida qadimiy şahar manzaralari, odamlarning turmuş tarzi, urf-odatlari va taqdiri aks etgan. Fotograf köp yillik izlanişlari davomida Buxoroning özига xos muhitini, turli millat vakillarining hayotini hujjatlaştirdi. Uning fotosuratlari bugun ötmiş haqida hikoya qiladigan tarixiy manbaga aylanmoqda. Şavkat Boltayev Buxoroda fotografiya san'atining rivojlanişiga katta va bebaho hissa qöşgan.

U taşkil etgan fotogalereya, havaskorlik kino studiyasi va atrofiga jamlangan ijodkorlar muhiti şaharda yangi san'at an'analarining şakllanişiga zamin hozirlagan. Fotografning faoliyat yöli, ijodiy qaraşlari va şogirdlari haqida turmuş örtoği Umida Hikmatova hamda öğli Bekzod Boltayev bilan suhbatlaşdik.





- USTOZ FOTOGRAF ŞAVKAT BOLTAYEVNİNG SOHAGA KİRİB KELİŞİ NİMADAN BOŞLANGAN?

UMİDA HİKMATOVA: Şavkat aka oltinçi sinfgaça fotografiya kasbi haqida deyarli tasavvurga ega bölmaganlar. Avvaliga muhandis bölişni xohlaganlar. Bu kasbning nomi va jaranglaşi ularga yoqqan ekan. Bir kuni döstlaridan biri uyiga taklif qilib, suratga oliş va fotosuratlarni çiqariş jarayonini körsatgan. Şu voqea sabab bölib, fotografiyaga mehr qöyganlar. Keyinçalik musiqa maktabida ham tahsil olganlar. Söng Buxoro davlat universitetining tarix fakultetini tamomlaganlar. San'atga bölgan qiziqişlari yillar davomida kuçayib borgan.

1985-yilda Buxoroda "Sitora" nomli foto va kino havaskorlik studiyasini taşkil qilganlar. Öşa davrda havaskorlik studiyalari davlat tomonidan fotoapparat va plyonkalar bilan ta'minlanardi. Studiyada qisqa metrajli filmlar suratga olina boşlangaç ularni Moskva va Leningradda ötkazilgan festivallarga ham yuborişgan. Şu tariqa, Şavkat akaning qizğin ijodiy faoliyati boşlangan.

"Sitora" studiyasi oddiy suratga oliş joyi bölib qolmadi. U yerga turli san'at sohalarida işlagan insonlar kelib-ketar, fikr almaşar, yangi ğoyalar ustida işlaşardi. Qolaversa, öziga xos ijodiy jamoa şakllangan edi. Şavkat aka köplab yoşlarga fotografiya sirlarini örgatganlar. Ular orasida fransiyalik fotograf ham bölgan. Özbekistonlik şogirlari Nuriddin Jörayev, Zilola Saidova va Elyor Nömatov sohani puxta örganişgan. Şu qatori ularning köpçiligi Buxoro va Toşkentda, xalqaro taşkilotlarda faoliyat yuritmoqda.

Şavkat aka kasbini juda yaxşi körar, öz tajribalarini boşqalar bilan bölişişdan mamnun bölardilar. Xuşfe'l, odamlarga yaxşilik qilişni yoqtiradigan inson edilar. Buxoroni yurakdan sevişlari sezilib turardi. Masalan, men bilan şahar tarixi va madaniyati haqida köp gapirardilar.





— ŞAVKAT BOLTAYEV İJODİDA ALOHİDA ÖRİN TUTGAN FOTOLOYİHALAR HAQİDA SÖZLAB BERSANGİZ.

UMİDA HİKMATOVA: Şavkat akaning ijodiy faoliyatida ikkita yirik fotoloyiha alohida ajralib turadi. Ularning umumiy ğoyasi "Buyuk ipak yölida kiçik xalqlarning omon qolişi" deb nomlangan. Loyihaning birinçi qismi buxorolik yahudiylar hayotiga bağişlangan va u "XXI asr. Buxoro: Buxoro yahudiylarisiz" deb nomlangan. Bu turkum ustida 2000-yillarning örtalarida faol işlay yuritganlar. Bunda ularning turmuş tarzi, urf-odatlari, oilaviy munosabatlari va kundalik hayotini suratga olganlar. Vaqt ötişi bilan buxorolik yahudiylarning köpçiligi Isroil va Amerika QöşmaŞtatlariga köçib ketdi. Şavkat aka ularning ayrimlarini yangi yaşaş joylarida ham suratga olganlar. Şu sababli bu fotosuratlar xalqning bir qismi boşqa mamlakatlarga köçganidan keyingi hayotini aks ettiradi. Ularning katta qismi arxivda saqlanmoqda.

Ikkinçi yirik loyiha buxorolik lölilar hayoti bilan boğliq. Unda jamoaning kundalik turmuşi, yaşaş tarzi va özига xos jihatlarini tasvirga tuşirganlar. Bu işlar xalqaro fotografiya hamjamiyatida ham ma'lum.

Umuman, Şavkat aka köplab xalqaro fotoloyihalarda qatnaşganlar, tanlov va festivallarda iştirok etganlar. Ayrimlarida hakamlar hay'ati a'zosi sifatida işlaganlar. Dunyoning turli mamlakatlariga borganlar. 2007-yilda "Özbekistonlik Nyu-Yorkda" nomli yirik fotoloyiha ustida işlab, Yevropaning öndan ortiq davlatida bölganlar. Bu safarlar ularning ijodiy tajribasini boyitdi, dunyoga turli nuqtai nazardan qaraş imkonini berdi.

SUHBATİMİZ MARHUM İJODKORNİNG OĞLİ BEKZOD BOLTAYEV BİLAN DAVOM ETDİ.

— OTANGİZ VA SİZNİNG FOTOSURATLARİNGİZDA İNSON TAQDİRİ VA XALQLAR HAYOTİ MUHİM ÖRİN TUTADİ. BU YÖNALİŞNİ QANDAY İZOHLAYSİZ?



BEKZOD BOLTAYEV: Menimça, fotografiya insonning içki dunyosini ifodalaş imkonini beradi. Kimdir öz fikrini qöşiq orqali aytadi, kimdir şe'r yozadi, yana birov kino yaratadi. Fotosurat ham inson ayta olmagan gaplarni ifodalay oladi. Men uçun eng muhim jihat şu: suratda ma'lum bir holat aks etişidir. Tomoşabin esa şu orqali voqea va inson haqida öylay boşlaydi. Fotografning şaxsi orqa öringa ötsa ham asosiy e'tibor tasvirdagi holatga qaratiladi.

Men tirik insonning içki dunyosidagi oğriqni körsatişga qiziqaman. Ayrim tirik odamlarning iç-içidan ölib bölganini suratga muhrlaşga urunaman. Taşqaridan qaraganda, uning hayoti yaxşi keçayotgandek tuyulişi mumkin. Könglida esa oğir keçinmalar, böşliq yoki tuşkunlik bordir, ehtimol. Ana şu qarama-qarşilikni suratda ifodalaş men uçun qiziq. Nazarimda, insonning içki holatini oçib beriş ba'zan ölim bilan boğliq manzarani tasvirlaşdan muhimroq.

Otam ham şogirdlariga suratning özi gapirişi kerakligini örgatardilar. Tasvirni körgan odam unda qanday voqea sodir bölayotganini, qahramon nimani his qilayotganini anglay olişi kerak. Buning uçun fotograf voqeani şunçaki qayd etmay, uning ma'nosini his qilişi zarur.

Otamning arxivida turli davrlarga mansub suratlar bor. Ular orasida tarixiy manzaralar va aholining kundalik hayotini aks ettirgan işlar mavjud. Masalan, Ramazon oyida milliy kiyimlarda tuşgan bolalar surati bor. Bu surat olingan paytda ular yoş edi. Hozir esa taxminan, qirq-qirq beş yoşga kirgan bölişsa kerak.

Boysunda imtihon paytida savolga javob berayotgan ikki öquvçining surati ham otamning işlaridan. Yana bir fotosuratda rus millatiga mansub, özbekka turmuşga çiqqan ayol tasvirlangan. Bunday holatlarning barçasi xalqlar örtasidagi munosabatlar, turmuş tarzi va davr özgarişlarini örganiş uçun muhim.

Suratlar vaqt ötişi bilan öz qiymatini yöqotmaydi. Aksinça, ularda aks etgan odamlar va muhit tarixga aylanişi bilan ahamiyati yanada ortadi.



— ŞAVKAT BOLTAYEV BUXORODA FOTOGRAFİYA SAN'ATİNİNG RİVOJLANİŞİGA QANDAY TA'SİR KÖRSATDİ?

UMİDA HİKMATOVA: Şavkat aka Buxoro fotografiya maktabiga asos solgan ijodkorlardan. Hozir Özbekistonda Toşkent va Buxoro fotografiya maktablari alohida tilga olinadi. Buxoroda birinçi fotogaleriyani ham 2003-yilda özlari taşkil qilganlar. Galereya, dastlab, Buxorodagi Uluğbek karvonsaroyida joylaşgan edi. U yerga xorijdan kelgan sayyohlar köp taşrif buyurardi. Bundan taşqari, şaharning sayyohlik yönalişlariga kiritilgan, tavsiya etiladigan maskanlardan biri edi. Galeriyada fotosuratlar orqali Buxoro hayoti va madaniyatini köriş mumkin bölgan. Hozir fotogalereyani vaqtinça uyimizga köçirganmiz.

Avvalgi galereya joylaşgan karvonsaroyda restavrasiya işlari olib borilmoqda. 2027-yilda Buxoroda ikkinçi xalqaro biyennale ötkazilişi möljallangan. Uşbu tadbirga tayyorgarlik doirasida karvonsaroy ta'mirlaş rejasi mavjud. Şu sababli, hozirça uyimizning bir burçagida galereya taşkil etdik. Bu yerda Şavkat akaning ijodi, arxivi va san'atga bölgan munosabati bilan tanişiş mumkin.

Şavkat aka san'atni keng jamoatçilikka yaqinlaştirişga intilardilar. U kişining taşabbuslari tufayli Buxoroda fotografiyaga qiziquvçilar, ijodkorlar va sayyohlarni birlaştirgan yangi muhit paydo bölgan.

Bugun Buxoroda ijodiy galereyalar va san'at loyihalari rivojlanib bormoqda. Bu jarayonning ilk qadamlarida Şavkat akaning mehnati borligini unutmaslik kerak.

QADIMIY UY

Видеолавҳани QR орқали кўринг.

Buxoro fotografiya san'atining asosçisi Şavkat Boltayev galereyasi va qadimiy uy tasvirlari

— SİZ YAŞAYOTGAN UY HAM MADANİY MASKANGA AYLANGAN. BU AN'ANA QANDAY PAYDO BÖLDİ?

UMİDA HİKMATOVA: Bizning uyimiz Buxoroning an'anaviy qadimiy uylaridan biri. U 1907-yilda qurilgan. Oilamiz bu yerda 1954-yildan buyon yaşaydi. Bu uyni meros sifatida olmaganmiz. Qaynotam uni sotib olganlar va asl holatida saqlaşni vasiyat qilganlar. Biz ham şu nasihatga amal qilib, körinişini imkon qadar özgartirmaslikka harakat qildik. Devorlarda fors tilidagi yozuvlar bor. Şuningdek, kirill yozuvidagi bitiklar ham uçraydi. Biz yozuvlarni saqlab qolganmiz.

Şavkat aka oltmiş yoşida nafaqaga çiqqaç uyda rasm çizişni boşladilar. Bu iş bilan umrlarining sönggi beş yili davomida şuğullandilar. Yuzdan ortiq suratlarning har biri öziga xos mazmunga ega. Bu uy vaqt ötişi bilan ijodiy makonga aylandi. Bizning mehmonxonamiz qadimiy uslubda bölgani uçun köplab rassomlar, musiqaçilar va fotograflar keladi. Mehmonlar uyning ikkinçi qavatidagi mehmonxonada ham yaşaşlari mumkin.

Şavkat aka vafot etganlaridan keyin döstlari, toşkentlik rassom Alişer Ibrohimov kelib, uyning hovli qismidagi devorga Şavkat akaning suratlarini çizdi. Bu ham ijodkorlar örtasidagi döstlik va hurmatning bir ifodasi böldi. Turli mamlakatlardan kelgan sayyohlar şu devorda öz xotiralarini, dil sözlari va tilaklarini yozib qoldirişadi. Bu yozuvlar uyning öziga xos tarixini boyitib bormoqda.





— OTA KASBNİ TANLAGAN BEKZOD BOLTAYEV UÇUN BU MEROS QANDAY AHAMİYATGA EGA?

BEKZOD BOLTAYEV: Otamni kuzatiş orqali fotograflikni tanlab, aynan, şu sohada faoliyat olib borayotganimdan mamnunman. Bolaligimdan u kişi bilan turli körgazma va tadbirlarga borganman. San'at muhiti menga ham ta'sir qilgan bölsa kerak. Şu bois, buni biror aniq voqea bilan boğlay olmayman. Menimça, sohaga qiziqişim oilamizdagi ijodiy muhit bilan boğliq. Otam menga va boşqa şogirdlariga suratning özi gapirişi kerakligini doim ta'kidlardilar. Fotosuratda voqea, hissiyot va inson holati aks etişi darkorligini uqtirganlar. Şuning uçun har bir tasvirga şunçaki çiroyli kadr sifatida qaramaslikka harakat qilaman.

Hozir beş yoşar qizim meni tasvirga olişlarimni köryapti.Şuning uçun uning harakatlaridan fotograflikka iştiyoqi borligini sezyapman. Demak, san'atga bölgan mehr oilamizda davom etmoqda. Albatta, har kimning öz yöli va qaraşi böladi. Otamdan qolgan eng muhim saboqlardan biri fotografda tasvir orqali öz fikrini aytiş, insonni va uning içki dunyosini köra biliş jihatlari bölişi kerakligidir. Men ham şu yönalişda işlaşga odatlanganman.

Şavkat Boltayevdan qolgan arxiv suratlarda Buxoroning tarixiy yodgorliklari, an'analari, urf-odatlari va turli davrlarda yaşagan odamlar hayoti aks etgan. Ular şaharning xotirasi, xalqlar örtasidagi munosabatlar va vaqt davomida yuz bergan özgarişlarni özida saqlaydi. Buxorodagi fotografiya san'ati asosçisining ijodi orqali şaharning ötmişiga nazar taşlaş, bugungi hayotni anglaş va kelajak avlodlarga tarixiy tasvirlarni yetkaziş mumkin.

Şavkat Boltayevning san'atni rivojlantirgani, taşkil etgan galereyasi va tarbiyalagan şogirdlari uning nomini Buxoro madaniy hayoti bilan boğlab turadi.

Suhbatdoş: Zulfizar

BUXORO YOŞLARI

TIBBIYOT INSTITUTIDAN XATNA TÖY

Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat Tibbiyot instituti tomonidan 10 nafar bolajonning xatna töyi ötkazildi



Tibbiyot instituti jamoasi uçun Buxoro şahridagi “Çaşma” restoranida bayram tadbiri taşkil etildi. Uşbu tantana ezgulik va saxovatga yöğrilgan qöşaloq şodiyonaga aylandi.

Institut rahbariyati taşabbusi bilan muassasada faoliyat yuritayotgan hamşiralar, kiçik tibbiyot xodimlari, farroşlar, qorovullar va boşqa işçi-xodimlarning farzandlari e’tibordan çetda qolmadi. Xususan, 10 nafar xodim farzandining xatna töyi taşkil etilib, ularga unutilmas quvonç ulaşildi.

Tadbirda institut rektori, professor Şuhrat Teşayev sözga çiqib, mazkur taşabbusdan közlangan maqsad institutda mehnat qilayotgan har bir xodimni qadrlaş, ularning oilasi va farzandlariga mehr-e’tibor körsatiş ekanini ta’kidladi. Bolajonlarga kelgusida bilimli, odobli, vatanparvar va el-yurtga naf keltiradigan insonlar bölib kamol topişlarini tiladi.

Milliy qadriyatlarimizga xos tarzda bolajonlarga zar tönlar kiydirilib, har biriga velosiped va qimmatbaho sovğalar tantanali ravişda topşirildi. Ularning quvonçi va yuzlaridagi tabassum, ota-onalarning mamnunligi bayramga özgaça fayz bağişladi.

Tantanada institut jamoasi, bolajonlarning ota-onalari va yaqinlari, nuroniylar hamda jamoatçilik vakillari iştirok etib, kiçkintoylarning quvonçiga şerik bölişdi. Mehmonlar uçun milliy taomlar tortilgan dasturxon yozilib, dilrabo kuy-qöşiqlar, milliy raqslar va turli köngiloçar çiqişlar bayramona muhitni yanada kötardi.

Tadbir davomida ota-onalar taşkilotçilarga samimiy minnatdorlik bildirib, farzandlari uçun unutilmas bayram taşkil etilganidan mamnun ekanliklarini ta’kidladilar.

Xalqaro ta’lim forumi



“ÖZBEKISTON – YAPONIYA”: YANGI HAMKORLIK VA IMKONIYATLAR

Buxoro davlat Texnika universitetida bölib ötgan “Özbekiston – Yaponiya” xalqaro ta’lim forumi va yarmarkasi ikki mamlakat örtasidagi ta’lim aloqalarini mustahkamlaş, xalqaro akademik hamkorlikni kengaytiriş hamda yoşlar uçun yangi imkoniyatlar yaratişga qaratildi.



Forumning oçiliş marosimida Buxoro viloyati hokimi örinbosari, Oila va xotin-qizlar boşqarmasi boşliği Hafiza Artikova, universitet rektori Sadoqat Siddiqova hamda JICA Özbekiston ofisi rahbari Mamoru Sakai iştirok etdi. Iştirokçilar tadbirning ta’lim va akademik aloqalarni rivojlantirişdagi ahamiyatini ta’kidladilar.

Qariyb 3 000 nafar yoşni qamrab olgan forum-yarmarkada Yaponiyaning 23 ta universiteti vakillari qatnaşdi. Jumladan, University of Tsukuba, Waseda University, Tohoku University, Nagoya Institute of Teçnology, Yokohama National University va boşqa nufuzli oliy ta’lim muassasalari vakillari öz ta’lim dasturlari, qabul talablari, stipendiyalar hamda akademik almaşinuv imkoniyatlari haqida ma’lumot berdilar. Yoşlar Yaponiyada tahsil oliş va xalqaro ta’lim dasturlarida iştirok etiş böyiça mutaxassislar bilan bevosita muloqot qiliş imkoniga ega böldilar.

Forumning ikkinçi kunida universitet rektori Sadoqat Siddiqova boşçiligidagi delegatsiya Yaponiya oliy ta’lim muassasalari vakillari bilan muzokaralar ötkazdi. Unda ta’lim va ilmiy-tadqiqot sohasidagi hamkorlikni yölga qöyiş, akademik almaşinuvni kengaytiriş hamda qöşma loyihalarni amalga oşiriş masalalari muhokama qilindi.

Yakunda hamkorlikning ustuvor yönalişlari böyiça dastlabki kelişuvlarga erişildi.

Mazkur kelişuvlar Buxoro davlat Texnika universitetining xalqaro aloqalarini mustahkamlaş, ilğor xorijiy tajribani ta’lim jarayoniga tatbiq etiş, ilmiy salohiyatni oşiriş hamda talabalar va professor-öqituvçilar uçun yangi akademik imkoniyatlar yaratişga xizmat qiladi.

Umuman, “Özbekiston – Yaponiya” xalqaro ta’lim forumi ikki mamlakat universitetlari örtasida samarali hamkorlikni rivojlantiriş, yoşlarni xalqaro ta’lim imkoniyatlari bilan taniştiriş va istiqbolli qöşma loyihalarga zamin yaratişda muhim platforma böldi.

BUXTUDA XALQARO KONFERENSIYA

Buxoro Davlat universitetida metallga işlov beriş texnologiyalarini modernizatsiyalaş hamda işlab çiqariş tarmoqlariga innovatsion yondaşuvlarni keng joriy etişga bağişlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bölib ötdi.

“Özbekistondagi asosiy sanoat tarmoqlari uçun metallga termik va mexanik işlov beriş” mavzusidagi nufuzli anjumanda xorijlik yetakçi mutaxassislar, taniqli professor-öqituvçilar hamda soha ekspertlari iştirok etişdi.

Tadbirni muassasa rektori Sadoqat Siddiqova kiriş sözi bilan oçib, öz nutqida şunday ta’kidladi:



- Sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirişda ilğor texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etiş, işlab çiqariş jarayonlarini uzviy takomillaştiriş hamda xalqaro tajribani çuqur örganiş hayotiy ahamiyat kasb etadi. Şuningdek, ilm-fan va işlab çiqariş integratsiyasini qat’iy mustahkamlaş, xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlik köpriklarini kengaytiriş orqali sohada yangi strategik yutuqlarga erişiş mumkin.

Anjuman doirasida metallarga termik va mexanik işlov berişning eng zamonaviy usullari, işlab çiqariş unumdorligini oşirişda raqamli texnologiyalardan foydalaniş, sanoat samaradorligini yuksaltiriş hamda ilm-fan va amaliyot örtasidagi uzviy aloqalarni yanada kuçaytiriş masalalari qizğin muhokama qilindi.

Şuningdek, iştirokçilar tomonidan sohadagi mavjud global muammolar, ularning innovatsion yeçimlari va istiqboldagi rivojlaniş strategiyalariga doir qimmatli ilmiy qaraşlar bayon etildi.

Mazkur xalqaro konferensiya sanoat sohasidagi jahon tajribasini özaro örganiş, yangi hamkorlik aloqalarini yölga qöyış va istiqboldagi qöşma ilmiy-amaliy loyihalar uçun mustahkam muloqot maydoni bölib xizmat qildi.

Şahzoda

2026-yil, noyabr, № 21-22

Mamlakatimizda amalga oşirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim yönalişlaridan biri — aholi farovonligini yuksaltiriş va bandlikni ta’minlaş hisoblanadi. Xususan, “Kambağallikdan farovonlik sari” umum milliy dasturi doirasida Buxoro viloyatida ham keng kölamli tizimli işlar olib borilmoqda.



BUXORODA KAMBAĞALLIKNI QISQARTIRIŞ VA YOŞLAR BANDLIGI:



STRATEGIK YONDAŞUV VA REAL NATIJALAR

Viloyatda moliyaviy resurslarning maqsadli taqsimlanişi, mahallabay işlaş tizimining samarali muvofiqlaştirilişi iqtisodiy ösiş sur’atlarida öz aksini topyapti.

Buxoro viloyati hokimining moliya-iqtisodiyot va kambağallikni qisqartiriş masalalari böyiça birinçi örinbosari Jamşid Şaropovning ta’kidlaşiça, bugungi kunda kambağallikka qarşi kuraşiş faqatgina bir martalik moddiy yordam körsatişdan iborat emas:

- Bu murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bölib, uning öz bahosi va aniq hisob-kitobi bor. Davlatimiz rahbari tomonidan viloyatimizda aholi bandligini ta’minlaş va tadbirkorlikni qöllab-quvvatlaş uçun qariyb, 12 trillion sömlik kredit mablağlari yönaltirildi. Bu mablağlarning sarflanişi elektron platformalar orqali qat’iy nazorat qilinmoqda. Natijada yil boşidagi 6 foizlik kambağallik körsatkiçi keskin qisqarib, 2 foizdan pastga tuşirildi. Biz viloyatdagi 13 ta tuman va şaharda taşkil etilgan maxsus iqtisodiy ştablar hamda ‘mahallalar yettiligi’ kömagida statistik raqamlar ortidagi haqiqiy inson taqdirini körişga intilmoqdamiz, — deydi Jamşid Şaropov.

Mazkur tizimli jarayonda, ayniqsa, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan yigit-qizlar va oliy hamda professional ta’lim muassasalari bitiruvçilarining bandligini ta’minlaş ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Viloyatda “diplomi bor-u, işi yöq” yoşlar muammosini bartaraf etiş va ularni zamonaviy kasblarga yönaltiriş borasida davlat idoralari hamkorlikda faoliyat olib bormoqda.

Bu boradagi amaliy işlar va “Yoşlar balansi” tizimining samaradorligi haqida Buxoro viloyati Yoşlar işlari boşqarmasi “Yoşlar balansi”ni muvofiqlaştiriş va yoşlarni kasb-hunarga yönaltiriş böyiça boş mutaxassisi Sardorbek Teşayev quyidagilarni ma’lum qildi:

“Joriy öquv yilida viloyatimizda mehnat bozoriga kirib kelgan 30 mingdan ortiq bitiruvçining har biri bilan individual tartibda iş olib borildi. “Yoşlar balansi” platformasi orqali ularning qiziqişlari va iqtidorlari tahlil qilinib, böş iş örinlariga joylaştiriş yoki tadbirkorlikka yönaltiriş çoralari körildi. Natijada bitiruvçi yoşlarning qariyb, 97 foizi töliq band qilindi. Öz biznesini boşlaş istagida bölgan yigit-qizlarimizga 1 trillion sömdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratilişi ta’minlandi. Bu mablağlar yangi iş örinlari yaratilişiga va yoşlarning yirik xizmat körsatiş hamda işlab çiqariş loyihalariga yetakçi bölişiga zamin yaratdi. Yil yakuniga qadar qolgan yoşlarning ham bandlik masalasini töliq hal etişni maqsad qilganmiz, — deya ta’kidladi Sardorbek Teşayev.

Şu bilan birga, Buxoroning iqtisodiy salohiyatini oşirişda qadimiy tarixga ega turizm va xizmat körsatiş sohalari asosiy drayver vazifasini bajarmoqda. Sayyohlar oqimining köpayişi yangi mehmonxonalar, hunarmandçilik markazlari oçilişini va bu orqali yuzlab iş örinlari yaratilişini taqozo etmoqda. Viloyat rahbariyati yirik sanoat loyihalari va hududiy kooperasiyalarni rivojlantiriş orqali yalpi hududiy mahsulot hajmini 10 foizga oşirişni rejalaştirgan.

Viloyat rahbariyati tomonidan joriy yil yakuniga qadar kambağallik va işsizlikni nol darajaga tuşiriş böyiça qat’iy majburiyat olingan. Bu maqsadga erişiş yölida viloyat böyiça mavjud bölgan 10 mingdan ortiq böş iş örinlari fuqarolar uçun muhim imkoniyatdir. Mahallabay tizimi orqali har bir oila va fuqaroning moliyaviy savodxonligini oşiriş hamda kasbga moslaşişiga kömaklaşiş işlari izçil davom ettirilmoqda. Zero, Buxoro viloyati bu borada boşqa hududlarga namuna bölişni maqsad qilgan.

Zulfizar Mavlonova,
“BYO” muxbiri.

YOŞLAR SALOHIYATI – MAHALLA BOYLIGI


Har bir mahallaning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan yoşlarning qanday inson bölib kamol topişiga boğliq. Yoşlarning bilimli, odobli, taşabbuskor va vatanparvar bölib ulğayişi faqat ularning şaxsiy intilişi bilan belgilanmaydi.

Bunda maktabdagi muhit, oiladagi tarbiya, jamoatçilikning e’tibori va özaro hamkorlik muhim örin tutadi. Mahalla mehr-oqibat, hamjihatlik, özaro kömak va insoniy qadriyatlar uçraşadigan maskandir.

G‘ijduvon tumanidagi Qumoq mahallamizda 0–30 yosh oralig‘idagi 3552 nafar yosh istiqomat qiladi. Ularning 1617 nafari 14–30 yoshdagi yigit-qizlardir. Bu mahallamizda yoshlar ko‘pchilikni tashkil etishini anglatadi. Ularning bilim olishi, kasb-hunar egallashi va o‘z qobiliyatini namoyon etishi mahallamiz rivojiga xizmat qiladi.

Quvonarlisi, qumoqlik yoşlarning 64 foizi oliy ta’limda tahsil olmoqda. 637 nafari esa xorijiy tillarni çuqur örganmoqda. Bu natijalar yoşlarning bilim olişga, öz ustida işlaşga va hayotda munosib örin egallaşga intilayotganidan dalolat beradi. Biroq, mahalla oldidagi vazifa faqat muvaffaqiyatga erişgan yoşlarni e’tirof etiş bilangina çeklanmaydi. Oliy ta’limga kira olmagan, doimiy iş bilan band bölmagan yoki öz yölini topişda qiynalayotgan yoşlar ham e’tibordan çetda qolmasligi lozim.

Yoşlarning böş vaqtini mazmunli taşkil etiş, zararli odatlarning oldini oliş, ularni mehnatsevarlik va mas’uliyat ruhida tarbiyalaş ham muntazam e’tibor talab qiladi. Buning uçun mahallada soğlom ijtimoiy muhit yaratiş, özaro



mehr-oqibatni mustahkamlaş va yoşlarni ezgu işlarga birlaştirişda faollar jonbozlik körsatmoği lozim. Mahalla yoşga yöl körsatsa, oila endi yetilib kelayotgan şaxsga tarbiya bersa, mavjud imkoniyatlar unga şaroit yaratsa, kelajak mustahkam poydevor ustida quriladi.

Şohruh Xayriyev,
Ğijduvon tumani, Qumoq MFY yoşlar yetakçisi.

2026-yil, noyabr, № 21-22

BUXORO-YOŞLARI.UZ @BY_GAZETASI

BUXORO YOŞLARI



“BUKHARA BOOKS” DÖKONI YANGI QIYOFADA

Köhna va boqiy Buxoroning madaniy hayotida yana bir fayzli voqea yuz berdi. “Bukhara Books” kitob dökoni özining yangilangan qiyofasida kitobsevarlar uçun qayta eşik oçdi. Tantanalarga boy tarzda taşkil etilgan uşbu marosimga şahrimiz yoşlari, adabiyot ixlosmandlari hamda keng jamoatçilik vakillari jam bölişdi.

Dökonda yaratilgan zamonaviy şart-şaroitlar va mutolaa uçun möljallangan şinam muhit barçaning diqqatini tortdi. 13 ming turdagi 200 mingdan ortiq kitoblar orasida har bir kitobxon özining ma’naviy qaraşlariga mos keladigan asarni osongina topa oladi. Iştirokçilarning köpligi va ularning közidagi quvonç viloyatimizda kitobxonlikning tobora yuksalib borayotganidan dalolat.

Tadbir dasturiga muvofiq iştirok etuvçilar ma’rifiy maskandagi yangi naşrlar bilan tanişib, maşhur kitob blogerlari bilan muloqot qiliş imkoniga ega böldilar. Erkin savol-javoblar jarayonida adabiyot olamining dolzarb mavzulari muhokama qilindi. Uçraşuvda qatnaşgan BuxDU talabasi Dildora Sanoyeva öz taassurotlari bilan bölişib, şunday dedi:

- Haqiqiy kitob bayrami kayfiyatini his qildim. Yangilangan dökonda yaratilgan qulayliklar, kitoblarning boy zaxirasi har bir kitobxonni sehrlab qöyadi. Tengdoşlarim hamda sevimli ijodkorlarim bilan muloqotda bölib, katta ilhom oldim. Şunday ma’rifat koşonalari yoşlarning bilimga bölgan iştiyoqini yanada oşiradi.

Kunning ikkinçi yarmida kitobxonlar oqimi kutilganidan ham ziyod böldi. Taşkiliy jarayonlar va vaqt çeklovi sababli muloqotni davom ettirişga ulgurmagan bölsalar-da, loyiha asosçisi Jahongir Bafoyev barça mehmonlarga özining samimiy minnatdorligini bildirdi. Uning ta’kidlaşiça, uşbu maskanning asosiy ğoyasi oddiy savdo majmuasi böliş örniga, kitob ixlosmandlarini va ijodiy ziyolilarni birlaştiruvçi katta hamjamiyatni şakllantirişdan iboratdir.

Şu bois yaqin uç oy içida Buxoroda bundan ham keng kölamli, yanada köproq kitobxonlarni bir joyga töplaydigan ajoyib ma’rifiy uçraşuv ötkazilişi rejalaştirildi.

Kitob va ilm-fan tarğibotiga qaratilgan bunday taşabbuslar yoşlarning ma’naviy dunyosini boyitişda muhim qadam bölib xizmat qiladi. Yangi körinişda foydalanişga topşirilgan “Bukhara books” dökoni özining ilk ma’rifiy uçraşuvi bilanoq şahar ahlida iliq taassurot qoldirdi.

Ilmga oşno qalblar uçun bu kabi uçraşuvlar yangi ğoyalar hamda ulkan ma’naviy boylik manbai bölib qolaveradi.

“BYO”



YETAKÇILIK - IŞONÇDAN BOŞLANADI



Ğijduvon tumani Saidkent mahallasida yoşlar yetakçiligini boşlaganimga endi ikki oy böldi. Yangi vazifaga kirişgan ilk kunim mahallaga qadam qöyar ekanman, xayolimda bir savol tinmay aylanardi: yoşlar meni jiddiy qabul qilişarmikan? Axir, endigina 23 yoşga kirganman. Bu yoşda köproq tajriba va natija kutilişi tabiiy. Men yoşlarga yöl körsatiş niyatida uşbu vazifaga kirişgan edim.

Biroq, köp ötmay, özim ham örganiş, izlaniş va tajriba orttiriş yölida ekanimni angladim. Bugun ortga nazar taşlasam, bu ikki oy men uçun bir qança muhim hayotiy va kasbiy saboqlarga boy böldi. Iş boşlaş arafasida xayolimda köplab rejalar bor edi. Qanday tadbirlar taşkil etiş, qaysi yönalişlarda tögaraklar oçiş, yoşlar uçun qanday loyihalarni amalga oşiriş haqida öylardim. Ammo, faoliyatimning dastlabki haftalaridayoq, bir haqiqatni tuşundim: yoşlarning özini, qiziqişlari va ehtiyojlarini yaxşi bilmay turib, tuzilgan rejalardan kutilgan samaraga erişiş qiyin.

Şu bois, hozirça katta tadbirlar taşkil etişga şoşilmayapman. Avvalo, mahallamiz yoşlari bilan yaqindan tanişiş, ularning fikr va takliflarini tinglaşga harakat qilyapman. Bu jarayon köça-köyda, mahalla yiğinlarida, oddiy va samimiy suhbatlarda davom etmoqda. Dastlab, ayrim yoşlar menga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bölişdi. Buni tabiiy qabul qildim. Çunki, avval ham turli va’dalar berilib, kutilgan natijalar kuzatilmagan bölişi mumkin. Vaqt ötişi, suhbatlar köpayişi bilan ular ham öz fikrlarini oçiqroq bildira boşlaşdi. Kimdir iş topişdagi qiyinçiliklarini aytdi, yana kimdir böş vaqtini mazmunli taşkil etiş uçun imkoniyat izlayotganini bildirdi. Ba’zan muammoning yeçimi katta mablağ yoki murakkab loyihalarda emas, avvalo, yoşlarni tinglaş, ularning holatini tuşuniş va töğri yönaliş körsatişda ekan. Mahalla yettiligiga murojaat qilayotgan har bir inson — yoş böladimi yoki yoşi uluğmi, öz muammosiga yeçim, savoliga javob, heç bölmaganda, bir oğiz dalda va kömak kutadi. Demak, bildirilgan har bir fikr, berilgan har bir va’da ortida mas’uliyat turadi.

Şunday ekan, bajara olmaydigan işni va’da qilmaslikka, har bir murojaatga imkon qadar mas’uliyat bilan yondaşişga harakat qilyapman. Yigirma uç yoşda turli insonlarning işonçini oqlaş oson emas. Buni yaşirmayman.

Faoliyatimni mutlaqo xatosiz boşladim, desam, bu haqiqatga töğri kelmaydi. Dastlabki uçraşuvlarimdan birida yoşlar bilan suhbatlaşar ekanman, öz rejalarim va ğoyalarim haqida köp gapirib yubordim. Afsuski, ularning fikrlarini yetarliça söramadim. Natijada suhbat kutilganidek samimiy va mazmunli keçmadi.

Uyga qaytar ekanman, özimga bir savol berdim: men bu yerga yoşlarni tinglaş uçun keldimmi yoki ularga özimni taniştiriş uçunmi? Keyingi uçraşuvlarda yondaşuvimni özgartirdim. Suhbatni oddiy, muhim savollar bilan boşladim: “Sizga nima yetişmayapti?”, “Yoşlar yetakçisi sifatida sizga qanday yordam bera olaman?”

Şundan söng yoşlar öz muammolari, qiziqişlari, orzu va maqsadlari haqida erkinroq gapira boşlaşdi. Demak, dastlabki xatoyim menga muhim bir haqiqatni örgatdi: yaxşi muloqotning asosi köp gapirişda emas, balki, töğri tinglay bilişda. Albatta, ikki oy katta tajriba orttiriş uçun uzoq muddat emas. Hali örganişim, izlanişim va amalga oşirişim kerak bölgan işlar köp.

Maşhura Ubaydulloyeva,
Ğijduvon tumani, Saidkent MFY yoşlar yetakçisi.

Şumtaka

BOLALIKDAGI BIR BODRINGNING AHOSI...



Yaqinda dars çoğida sinf eşigi taqilladi. Hali ruxsat bermayin turib, bir notaniş kişi eşikdan boş suqdi. “Durdona bilan Asaloy öquvçilaringiz bormi?” “Ha, bor” “Ular keça tomorqamizdan bodring öğirlab yeyişdi, sal quloğini çözib qöying”...

Men lol qoldim. Durdona bilan Asaloy eng oldi va a’loçi öquvçilarimdan. Şundoq qaraşim bilan har ikkisiyam parta ostiga kirib olibdi. Vaziyatni qölga olib, haligi kişidan uzr söradim va sekingina taşqariga çiqib: “Aka, yoşingiz uluğ ekan, ammo, bunaqa gaplarni öquvçilar orasida aytmaydi. Bolalar yoş, şöxlik qilib qöyişgandir”, - dedim öquvçilarim yonini olib. Haligi kişi özini noqulay his qilsa-da, ğudranib-ğudranib binodan çiqib ketdi...

Sinfxonaga qaytib kirdim. Ikki qiz boşini quyi solgança ötirişardi. Ularga bunaqa paytda boğbon yoki tomorqaçidan sörab yeyiş töğri ekanini tuşuntirdim. Ikki qiz esa sinfdoşlari orasida izza tortgani uçunmi, köz yoş tökişardi. Şunda men öquvçilarimga bolaligimda keçgan voqeani sözlab berdim:

- Ön-ön bir yoşlar atrofida edik. Qöşni, sinfdoş, jondan aziz dugonam Anvara (joyi jannatda bölsin) bilan ikkalamizga qarab, “Bu ikkovingizdan hali bir gap çiqadi-ya!” deganlar bölsa kerak. Çunki bizda şöxlik ham, şumlik ham, reja ham yetarli edi. Faqat rejalarimizning oxiri köpinça “ta’zir” bilan tugardi.

Uyimiz yonida qabriston bor edi. Qabristonning qorovuli Rauf toğamiz juda yaxşi inson edilar. Qabriston yonidagi boğni parvarişlar, tomorqalariga ekin ekib, mehnatlarining rohatini körar edilar. Bodringlari ham şunday pişardiki, uzoqdan qarasang, “Meni uzib ye!” deb turganday tuyulardi.

Yozning jazirama kunlaridan biri. Anvara bilan kiçikroq kanalga çömilgani yöl oldik. Issiqda erib borayotganimizdan suvni öylab, könglimiz yayradi. Şu payt Anvaraning közi boğdagi bodringlarga tuşdi.

— Dilfuz, qara! Bodring! Yur, bitta-ikkita uzib yeymiz!

Men darrov vaziyatni tahlil qildim. Öşa paytdayoq menda muallimalikning ilk alomatlari bor ekan: avvalo, xavfni köraman, keyin, baribir, şerikka ergaşaman.

— Yer suğorilgan-ku, kirib bölmaydi. Qöy, birov körib qoladi!

— E-e-e, hozir hamma mazza qilib dam olyapti. Kim köradi? Yur!

Anvara şunday deganiça, suğorilgan jöyakka kirib ketdi. Men esa taşqaridan turib, poyloqçilik, ya’ni göyoki, qorovullik qilyapman.

Dugonam tört-beşta bodringni uzib çiqdi. Men ham çetroqdagi jöyakdan arang bitta bodring topdim. Bitta bölsa ham, halol mehnat bilan emas katta tavakkal bilan topilgan bodring edi.

Kanal böyiga ötirib, bodringlarni artib, iştaha bilan yeya boşladik. Har bir tişlamda özimizni omadli his qilyapmiz. Na qöriqçi bor, na guvoh. Xullas, jinoyat olamining eng sodda va eng bodringxör vakillari edik.

Şu payt tepamga bir soya tuşdi.

Avvaliga daraxt soyasidir, dedim. Keyin soyaning odamga öxşaşini sezib, sekingina boş kötardim. Qarasam, Rauf toğamizning öğli Odil aka! Qölida esa uzilgan bodring palagi. Anvara bodring uzaman, deb palakni ham ildizi bilan qöporib olgan ekan. Biz bodring yeb ötiribmizu, qölimizda dalil-aşyo, tepamizdagi odam xuddi tergovçi.

Odil aka jahl bilan söradilar:

— Bodringni qayerdan oldinglar?!

Anvara xuddi dökondan pulga sotib olganday, zarraça parvo qilmay:

— Uyimizdan, — dedi.

Hali-hanuz öşa javobni eslasam, Anvaraning jasoratiga qoyil qolaman. Dalil qölda, oyoq loyda, palak tergovçining qölida, lekin javob tayyor: “Uyimizdan!”.

Odil aka oyoqlarimizga qaradilar:

— Unda nega oyoqlaring loy?!

Şu yerda Anvaraning advokatlik faoliyati tugadi. Ikkovimiz ham jim. Odil aka qöllaridagi palak bilan ikkimizni navbatma-navbat savalay boşladilar. Palakning mayda tikanaklari yupqa köylakçalarimiz ustidan badanimizga botib, açiştirardi.

Bir mahal Anvara çaqqonlik bilan örnidan turdi-da:

— Dilfuz! Suvga taşla! — deb baqirdi.

Özi şunday deganiça, kanalga sakrab tuşdi. Birpasda suvning narigi tomoniga ötib oldi. Men ham orqasidan!

Öşa kuni kanal suvi bizning közimizga jannatning eşigidek köringan. Suvdan çiqib, orqaga qaramay qoçdik. Qoçişimizga qarab, olimpiadaga tayyorgarlik köryapti, desa ham bölardi. Faqat sport kiyimi örniga loy, mukofot örniga esa palak zarbalarining esdaligi bor edi.

Xullas, bodring yedik, palak ham yedik. Ta’zirimizni yaxşigina totdik. Şu-şu böldi-yu, mening bolalik hayotimda yangi lavozim paydo böldi. Bodring uzuvçi emas, bodring uzuvçining poyloqçisi!

Anvara jöyakka kirsa, men taşqaridan kuzataman. Birov kelyaptimi-yöqmi, xabar beraman. Göyoki, boğning rasmiy nazoratçisidek. Öşanda bir narsani tuşunmagan ekanmiz: birovning mehnati bilan bitgan ne’matning qadri uni uzib yeyişda emas, ruxsat sörab, halol totişda ekan.

Endi öylasam, bolalikning ham öz sudi, öz hukmi bor ekan. Bizning sudimiz kanal böyida böldi, hukmimiz esa palak bilan öqildi.

Ammo, Anvara bilan ötgan öşa beğubor kunlarni eslasam, yuragimda ham kulgi, ham soğinç uyğonadi.

Anvara, öşanda ham jasoratli eding. Faqat bitta kamçiliging bor edi: bodring öğirlaş rejasida menga maslahatçi eding, qoçiş rejasida esa komandir! Hayotda “qoçiş”ning eng oğriqli va oğir yölini tanlading. Joying jannatda bölsin, sinfdoşim-dugonam.


* * *

Öquvçilarim meni ham kulgi-tabassum, ham közda yoş bilan tinglaşdi. Durdona va Asaloy esa: “Xayriyat, ustozlar ham bolaliklarida şöx bölişgan ekan”,- deyişdi. Sinfda “gurra” kulgi kötarildi.

Dilfuza Xalilova,
Romitan tumanidagi
6-maktabning oliy toifali
boşlanğiç sinf öqituvçisi.

“PAXTA TERIMI” MAVSUMI: BOLALIK XOTIRALARI...

Şahardan qişloqqa qaytar ekanman, yo’l yoqasidagi dalalarda kuz böyi biror marta ham terilmagan paxtazorlarga közim tuşdi. Har ikki tomonda qiyğos oçilgan paxta çanoqlari beğubor bolaligimni yodga soldi.



Ha, u paytlar bizning xonadonda na uyquda, na uyda tinim bolar edi. Sahar mardondan onam dalaga otlanarkan: “Darsdan çiqib, heç qayerga çalğimasdan orqamdan tez yetib bor, mollarga öt terişing kerak”, - deb tayinlab ketardilar.

Biz bir vaqtning özida ham paxta terardik, ham qiş uçun haşak ğamlar edik.

Paxta yiğim-terimi mavsumida butun qişloq huvillab qolar, yoşu-qari birdek dalada ter tökardi. Peşin vaqti kelganda, katta tol soyasiga uzun poyandoz solinardi. Barçaning bir dasturxon atrofida jam bölib tuşlik qiliş gaşti mutlaqo boşqaça edi. Kim nima taom olib kelgan bölsa, bir-biriga ilinardi. Har zamonda rais buvaning: “Eng köp paxta terganlarga maxsus sovğa bor! Reja tölsa, albatta, bayram qilib beraman. Qani, bir tola ham yerda qolmasin, ğayrat qilinglar!” - degan hayqiriği çarçoqlarimizni yozib, bizga çeksiz kuç bağişlardi.

Har kuni onamizdan: “Paxta puliga menga nima olib berasiz?” - deb sörayverardik. Ba’zan onamizdan yaşirinça, etagimiz oğirroq çiqsin, degan xayol bilan paxtalar orasiga tuproq yoki kesak solib qöyadigan şöxliklarimiz ham bor edi.

Erta tongda: “Şudring tuşgan paxta oğir bosadi”, deya butun qişloq aholisi hali tong oqarmasdan dalaga yöl olardi. Keçga yaqin uyga qaytayotgan eşak-aravalar xuddi ulkan karvondek tizilib ketardi. Har birimizning qölimizda issiqqina non, pomidor — uyga yetgunça maza qilib yeb borardik. Qişloqqa yaqinlaşganimizda har bir xonadondan taralayotgan tansiq taomlar hididan bugun kimning uyida nima pişayotganini topişga harakat qilardik.

Bugun esa zamon özgardi. Endi dalalarda insonlarni emas, zamonaviy paxta teriş maşinalarini körasiz. Ora-sirada közga taşlanadigan bir-ikki terimçini hisobga olmasangiz, paxtazorlarda odam kamnamo. Faqatgina savlat tökib, ildam odimlayotgan ulkan texnikalar qator oralarini kezmoqda. Aytişlariça, hozirgi “Xitoy paxtasi” navini inson qöli bilan teriş, deyarli, imkonsiz ekan. Çunki, uning böyi past, çanoqlari esa juda kiçik. Boz ustiga, uning vazni ham yengil bölib, terimçilar maxsus kimyoviy dori hididan kasallanib qolişmoqda.

Ha, yillar ötib, “Paxta terimi” mavsumi ham şirin bolalik xotirasiga aylandi. Endi u jöşqin davrlar ham u samimiy insonlar ham qaytmaydi. Bizga esa ulardan har yili qayta-qayta oçilib, ona zaminga körk bağişlovçi bepoyon oppoq paxtazorlar qoldi, xolos...

Rahima Atoyeva,
“BYO” jamoatçi muxbiri.

DARSDA ÇALINGAN QONGIROQLAR

Zamonaviy texnologiyalar şiddat bilan rivojlanayotgan davrda hayotimizni turli texnik vositalar hamda gadjetlarsiz tasavvur etiş qiyin. Mobil qurilmalar uzoqni yaqin, muşkulimizni oson qilsa-da, afsuski, ularning jamiyatga salbiy ta’siri ham yetarliça topiladi.

Yetti yoşdan yetmiş yoşgaça bölgan har bir kimsaning qölida smartfon. Undan unumli foydalanib, halol daromad qilayotganlar talaygina. Biroq, qimmatli vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda behuda sovurayotgan ota-onalar, ösmirlar va eng açinarlisi, ta’lim tizimi xodimlari ham yöq emas.

Aslida, pedagoglar yoş avlodga har tomonlama örnak va namuna bölişlari kerak emasmi?

Albatta, hamma ustozlarni bir qolipga solib bölmaydi. Talaba va öquvçilarining kamoli uçun jon kuydirib, bor bilimini beradigan fidoyi muallimlarimiz juda köp. Biroq, dars paytida tinglovçilarga şunçaki mustaqil topşiriq berib, özi telefon ekraniga termulib ötiradigan kimsalar ham uçrab turadi va bu haqiqiy hayotiy fakt. Ma’ruzani mazmunli ötkaziş, yoşlar qalbiga ilm ziyosini singdiriş har bir muallimning muqaddas burçidir.



Universitetdagi yillarimni eslasam, biz ham xuddi şunday yoqimsiz holatga guvoh bölgandik. Ayrim professor-öqituvçilar mavzuni çala qoldirib, tinimsiz “çalingan qönğiroqlar”ga javob beriş uçun auditoriyadan çiqib ketişadi. Bu vaziyat darsdan qoçadigan ba’zi talabalarga yoqsa-da, ilm olişga iştiyoqi baland tengdoşlarimizning haqli e’tiroziga sabab böldi.

Bir kursdoşim kuyinib şunday degandi: “Biz oliygohda sifatli ta’lim oliş uçun şartnoma puli tölayapmiz. Berilgan quruq topşiriqni uyda ötirib ham bajarişimiz mumkin-ku! Agar dars ötışga xohişi, talabalardan talab qilişga ilmi yetmasa, nega bu kasbni tanlaşdi? Nahotki, ularni heç kim nazorat qilmaydi? Imtihonlar boşlangaç esa oğiz töldirib, hamma mavzuni mukammal ötganman, deyiladi. Kontraktni vaqtida tölamasak, darsga kiritmaydigan yoki talabalar safidan çiqaradigan rahbariyatning, nafaqat, talabaga, balki, öz vazifasini suiste’mol qilayotgan öqituvçiga ham kuçi yetişi kerak emasmi?”

Uning bu sözlarida jon bor edi. Zero, talaba har doim ham öz haq-huquqini oçiq ayta olmaydi. Şu sababli, talabalarning davomati qatorida ustozlarning dars ötış sifati ham qat’iy nazoratga olinsa, tizimdagi bunday nuqsonlar bora-bora barham topadi.

Bugungi talaba ertaga yurtimiz tayançi, öz sohasining yetuk mutaxassisi va davlat rivojiga hissa qöşadigan şaxsdir. Komil inson tarbiyasida esa muallimning hissasi beqiyos.

Şu bois, ta’lim ahlining öz kasbiga vijdonan yondaşişi, dars vaqtida zarurat bölmasa, telefon qönğiroqlarini öçirib qöyişlarini istardim.

Şahzoda Yangiyeva,
“BYO” muxbiri.



SOVETLARNING QOTIL SIYOSATI QURBONI

Buxorolik ayol, Özbekiston SSR boş prokurori yordamçisi lavozimida işlagan, Özbekistondagi birinçi huquqşunos ayol Diloro Yusupova haqida

“Xalq duşmani”ning xotini, Boş prokuror yordamçisi Diloro Yusupova qanday qiynoqlarga duçor bölgandi?

Özbekistonning birinçi ayol huquqşunosi, 24 yoşida ÖzSSRning boş prokuror yordamçisi bölgan Diloro Yusupova ham qatağon ta’siridan çekkada qolmagan. **Tarixçi olim Bahrom Irzayev** Özbekistonda zamonaviy yuridik bilimlarga asos solgan yoşlar – Diloro Yusupova va uning turmuş örtoği huquqşunos Muhammadjon Möminov haqida hikoya qiladi:

“Örta Osiyo, XX asrning boşi, bir zamonlar jahon ilm-fani beşigi bölgan bu ölkada ta’lim oqsagan davr. Ayniqsa, bu vaqtda qizlarning zamonaviy bilimlarni egallaşiga heç qanday muassasalar mavjud emasdi. Mana şunday murakkab va murosasiz zamonda Diloro kabi köplab özbek qizlari mislsiz iroda körsatdi. Ular bir neçta tillarni örgandi. Moskva, Boku, hatto Germaniyaning Berlin Drezden kabi yirik şaharlarida ilm oldi, vatanga qaytib, mamlakat taraqqiyotida muhim rol öynadi. Şunday qizlardan biri Diloro edi...”

Ta’qib va quvğindagi bolalik

Özbekistonning birinçi ayol huquqşunosi, ÖzSSR boş prokurori yordamçisi Diloro Yusupova 1901-yil Buxoro şahrida dunyoga keladi. Uning otasi Sobirjon Yusupov “Yoş buxoroliklar” taşkilotining faol a’zolaridan bölib, rus tilini bilgani bois, siyosiy harakatlarda faol qatnaşgandi. Şu sabab Diloroning bolaligi otasining siyosiy qaraşlari tufayli ta’qib va quvğinlarda ötdi.

Diloro 6 yoşligida onasi bilan Buxoro amirligi hududidan surgun etildi. Toşkentga kelgaç ham avval çor oxrankasi ta’qibida, söng doimiy ravişda ÇK ayğoqçilaridan yaşirinib yaşaşga majbur böladi. Diloro onasi bilan hali u yerda, hali bu yerni makon tutib, kun keçirdi.

Murakkab davrda ilm yölida kuraş

Diloro Yusupova mana şunday qiyin şaroitda yoş bölişiga qaramay, ilm yölini tanladi. U 11 yoşida Buxoro Xalq Jumhuriyati tomonidan Moskvaga öqişga yuborildi. U yerda özining iqtidori, bilimga taşnaligi bilan 1924 yildayoq Moskvadagi özbek talabalari orasida tanildi. 1926-yil maktabni a’lo baholarga tugatib, Özbekistonga qaytdi.

U Toşkentda komsomolining okrug qömitasida işlaş barobarida Örta Osiyo davlat universitetining sud bölimiga öqişga kirdi. Aspiranturaga tayyorlanadi. Sovet huquqi ilmiy-tekşiriş institutida öqidi. Şundan söng bitiriş imtihonlarini topşirgaç, yöllanma bilan Özbekiston Respublikasi Prokuraturasiga işga yuborildi. Sinov muddatidan söng u 1925-yil 24 yoşida Özbekiston Respublikasi prokurori yordamçisi lavozimiga tayinlandi.

Özbekistonda yuridik bilimlarga asos solinişi

Diloro Yusupova Moskvadagi öqişda tanişgan, ÖzSSR Oliy sudi sudyasi bölgan namanganlik Muhammadjon Möminov bilan turmuş qurdi. Muhammadjon Möminov Özbekistonda yuridik bilimlarning şakllanişiga asos solgan yoş huquqşunos edi.

U Samarqandda Özbekiston Oliy sudi kollegiyasi a’zosi, 1931-1935 yillarda sud tizimidagi qator muhim lavozimlarda faoliyat olib boradi. Keyinroq uning taşabbusi bilan şu institut bazasida Özbekistondagi birinçi yuridik institut paydo böldi. Uning ğayrat-şijoati tufayli qisqa vaqtda köplab yuridik luğatlar, jurnallar, kitoblar çiqarildi. Ayniqsa, Muhammadjonning 1932-yil “Na fronte teorii gosudarstva i prava” kitobi naşrdan çiqişi katta şov-şuvga sabab böldi.

Dahşatli qiynoq, tirik murdaga aylangan huquqşunos

Yoş oila baxtdan sarmast edi. Işdagi ziddiyatlar, hasadgöy kimsalarning böhtonlariga qaramay, ular har kuni yangi-yangi ğoyalar, yangi asarlar ustida bahslaşardi. Ularning bağrida öğli Marat va Surayyo ulğayadi...

Biroq, 1937-yil 29-mart tunida baxtli yoş oilaning eşigini noma’lum nusxalar taqqilatdi. Orderni körsatib, oila a’zolarini devorga turğazib qöygan holda tonggaça nimalarnidir qidirişdi. Ertalabga yaqin barça narsalarni xatlab, Muhammadjon Möminovni olib ketişdi.

Öşanda Muhammadjon ÖzSSR Adliya komissarligining aholiga yuridik yordam va sud himoya bölimi boşliği, Diloro Yusupova esa ÖzSSR Boş prokurori yordamçisi edi.

Bir kunda xonumonidan ayrilgan Diloro avvaliga heç narsani tuşunmadi. Bu hodisani dastlab, erining ortidan tez-tez bölib turadigan tuhmatlardan biridir, deb öyladi. Biroq, juda qiyin jarayonlardan söng berilgan ruxsat ortidan eri bilan uçraşgaç angladiki, bu gal vaziyat juda boşqaça. Bir neça kungi dahşatli qiynoqlardan söng Muhammadjon allaqaçon ölimni böyniga olgan, “tirik murda”ga aylantirib taşlangan edi...

Diloro erining aybsizligini isbotlaş uçun barça çoralarni qölladi. Moskvaga yaşin suratda NKVDning amalga oşirayotgan bedodliklari haqida maxsus xat yölladi. Zudlik bilan maxfiy tarzda erining sobiq dösti Davlat Rizayev bilan uçraşdi. Unga eri Muhammadjon Möminovga nisbatan amalga oşirilayotgan nohaqliklar haqida aytib, yuqori taşkilotlarni bundan xabardor qilişini söradi. Afsuski, bu vaqtga kelib, na Moskvadan, na mahalliy hukumatdan heç qanday umid qolmagan edi...

Muhammadjon Möminovga “Xalq duşmani” degan ayblovni qöyişdi. Diloro esa “erining aksil inqilobiy faoliyatini yaşirgan” deb hibsga olindi. Ularning 6 yoşli öğli Marat hamda 4 yoş qizi Surayyo “Bolalar uyi”ga yuborildi. Muttasil jismoniy qiynoq va şafqatsiz tahqirlar ostida ötkazilgan söroqlarda Diloro erining ham, özining ham aybi yöqligini isbotladi. Biroq, 1938-yil 4-oktyabrida Muhammadjon Möminov “Moskvada bölgan namoyiş rahbarlaridan biri” degan böhton bilan otib taşlanadi. Keyinçalik tergov vaqtida qöllangan qiynoq va söroqlar haqida heç qaçon gapirmaslik şarti bilan Diloroni ozod etişdi. U qamoqdan qaytgaç, farzandlarini bolalar uyidan oldi. Oddiy işlarda işladi va umrini farzandlarining tarbiyasiga bağişladi.

Stalin vafotidan söng boşlangan “iliqlik davri”ning ilk kunlaridan Diloro Yusupova turmuş örtoği Muhammadjon Möminovning şa’ni uçun kuraşdi, uning işini qayta körişlarini talab qildi. Diloroning erini oqlaş yölidagi murosasiz kuraşi besamar ketmadi va nihoyat, 1957-yilda Muhammadjon Möminov rasman oqlandi. Diloroning tarbiyasi bilan öğli Marat Möminov matematika fanlari doktori, professor bölib, köp yillar mamlakatimiz ilm-fani taraqqiyoti yölida zalvorli işlarni amalga oşirdi. Qizi Surayyo Möminova esa Moskva medisina institutida öqib ilm oldi.

Vafodor ayol, huquqşunos, matonatli ona bölgan Diloro Yusupovaning hayoti köp yillar kelajak avlod uçun ibrat maktabi bölib qoladi.

Nosir Zokirov

BUXORO-YOŞLARI.UZ @BY_GAZETASI

BUXORO YOŞLARI

“ŞAKAR” SIZNI ADO QILADI



Tasavvur qiling, bir sinfda ikki öquvçi tahsil oladi. Bittasi har kuni tanaffusda suv içadi, ikkinçisi esa şirin gazli içimliklarni kanda qilmaydi. Vaqt kelib, ulardan qaysi biri ma’lumotlarni yaxşiroq eslab qoladi, diqqatini uzoqroq jamlaydi yoki katta vazifalarni tezroq hal qila oladi?

Bu mavzu universitetimiz debat klubida ham qizğin muhokamalarga sabab böldi. Talabalar turli ilmiy izlanişlar, tajribalar va kuzatuvlarni örganib, bir savolga javob izlaşdi: gazli içimliklar bizning xotiramiz uçun, diqqatimiz uçun xavfmi? Izlanişlarimiz natijasi ilm-fan bu bahsli mavzuga befarq emas ekanligiga guvoh böldik.

Shakarli içimliklar masalasi ortiqça vazn yoki tiş salomatligida emas, inson jismining eng muhim a’zolaridan biri miya faoliyati uçun xavfmi yoki yöqligi haqida 2019-yilda Xitoyning Guançjou şahrida ötkazilgan tadqiqot masalani köndalang qöyadi.

Xitoyning öşa tinib-tinçimas olimlari bir kuni beşta boşlanğiç maktabdan tasodifiy tanlangan 6–12 yoşli 6387 nafar bolaning ma’lumotlarini örgandi. Ota-onalardan farzandlarining şakarli içimliklarni iste’mol qiliş tezligi haqida ma'lumotlarni qayd qilib borishgan. Tadqiqot şakarli içimliklarni haftasiga ikki marta yoki undan köp iste’mol qiladigan bolalarda öz xatti-harakatlarini boşqarişi, diqqatini jamlaşi, ma’lumotlarni eslab qolişi bilan boğliq muammolar kuzatiliş ehtimoli bunday içimliklarni iste’mol qilmaydigan bolalarga nisbatan 1,62 baravar yuqori bölgan.

6387 nafar bolaning iştiroki içimliklarni çanqoq bosdiga qabul qiliş doim ham töğri yeçim emas. Izlanish insonlar bilan çeklanib qolmay, kalamuşlar örtasida ham olib borilgan.

Xulosalar uşbu kemiruvçilarning miyasida yalliğlaniş jarayonlari kuzatilganligini körsatdi. O'zi inson şirin içimliklarga tetik, zör kayfiyatda yuriş uçun murojaat qiladi. Insonga energiya oliş uçun nima kerak? Gulyukoza kerak. Lekin, bu özidan-da, marketinggi kuçli içimliklar bilan qondiriş kerak, degani emas. Meva, sabzavot, don mahsulotlari va boşqa tabiiy oziq-ovqatlar ham organizmni zarur energiya bilan ta’minlaydi. Hattoki, inson tanasining köp qismida suv bölganligi uçun u oddiy suvdan ham quvvat oladi.

Buning isboti sifatida Amerika Pediatriya akademiyasi pediatri doktor Janine opa Rethy oddiy suvni bolalar uçun eng yaxşi içimliklardan biri sifatida tavsiya qiladi. Uning ma’lumotlariga köra, 5-18 yoşli bolalar va ösmirlarga asosan oddiy suv va şakarsiz sut içişni, şakarli içimliklardan esa saqlanişni tavsiya qilgan.

Xöş, maqolamni öqidingizmi? Şundan keyin ham gazli içimliklar içişni davom etasizmi? Aynan, şuning uçun maqolaga xulosa yasamadim. Har bir insonning öz tanlovi bor şunday ekan xulosani hayotingizga özingiz taqdim eting!

“BIR YÖL” YAGONA TRANSPORT PLATFORMASI

Özbekistonda “Bir yöl” yagona transport platformasi işga tuşirilişi mumkin.

Özbekistonda 2028-yil 1-yanvardan temir yöl, havo, avtobus va şahar jamoat transporti qatnovlarini birlaştiruvçi yagona raqamli platformani joriy etiş taklif qilinmoqda.

Transport vazirligi tomonidan işlab çiqilgan loyiha doirasida yölovçilar bir platforma orqali transport yönalişlari, harakat jadvali, çipta narxlari va böş örinlar haqida ma’lumot olişi mumkin böladi.



“CHATGPT”dan AYOL VAFOT ETDI

ChatGPT tavsiyasi bilan dori qabul qilişni töxtatgan ayol vafot etdi. AQŞda 31 yoşli ayol tutqanoqqa qarşi dori vositasini qabul qilişni töxtatganidan söng vafot etdi. Uning ota-onasi OpenAI kompaniyasini sudga berdi.

Da’voga köra, ChatGPT ayolga dori dozasini kamaytiriş rejasini tuzib bergan va bu haqda şifokorlarga aytmaslikni tavsiya qilgan.

28 YILLIK YO‘L

28 yillik yo‘l, minglab kilometrlar va nihoyat, -ona bag‘ri... Sayyoh 28 yillik sayohatdan söng onasining bağriga qaytdi.

Britaniyalik 57 yoşli Karl Buşbi 28 yil davom etgan dunyo böylab sayohatini yakunlab, Angliyaga qaytdi. U 1998–yilda Çilidan yölga çiqib, transport vositalarisiz 30 ta mamlakatni bosib ötgan. Xall şahrida uni yuzlab insonlar kutib oldi. Eng ta’sirli lahza esa Karlning 10 yildan beri körmagan onasi bilan uçraşuvi böldi.



Oila quriş — inson hayotidagi eng muhim qarorlardan biri. Biroq, bu qaror şoşilinç emas, balki ongli tanlov, ruhiy va jismoniy tayyorgarlik asosida qabul qilinişi lozim.



ERTA VA QARINDOŞLAR ÖRTASIDAGI NIKOH OQIBATLARI

Bugungi kunda erta nikoh va qarindoşlar örtasidagi nikohning oldini oliş soğlom avlodni voyaga yetkaziş, yoşlar salomatligini asraş nuqtayi-nazaridan dolzarb masalalardan biridir. Erta nikoh, ayniqsa, voyaga yetmagan qizlar salomatligi uçun jiddiy xavf tuğdiriş mumkin. Çunki, organizm hali töliq şakllanmagan davrda homiladorlik va tuğruq turli asoratlar, jumladan, kamqonlik, qon bosimi bilan boğliq muammolar hamda muddatidan oldin tuğruq xavfini oşiradi. Bundan taşqari, erta turmuş quriş yoşlarning ta’lim olişi, kasb egallaşi va mustaqil hayotga tayyorlanişiga ham salbiy ta’sir körsatiş mumkin.

Qarindoşlar örtasidagi nikoh esa tibbiy-genetik jihatdan alohida e’tibor talab qiladi. Yaqin qarindoşlar bir xil yaşirin irsiy gen taşuvçisi böliş ehtimoli yuqoriroq. Agar har ikki ota-onada bir xil retsessiv gen mavjud bölsa, farzandda irsiy kasallik namoyon böliş xavfi ortadi.

Tibbiy ma’lumotlarga köra, birinçi darajali amakivaççа yoki xolavaççalar örtasidagi nikohda tuğma nuqsonlar va ayrim irsiy kasalliklar xavfi qarindoş bölmagan juftliklarga nisbatan yuqoriroq böladi. Albatta, bu har bir bunday nikohdan kasal farzand tuğiladi, degani emas, ammo, ehtimoliy xavflarni oldindan baholaş muhim.

Şu sababli, nikohdan oldin tibbiy körikdan ötiş, zarur hollarda tibbiy-genetik maslahat oliş katta ahamiyatga ega. Bu muammolarning oldini olişda ota-onalar, mahalla, ta’lim muassasalari va tibbiyot xodimlarining hamkorligi muhim.

Yoşlar örtasida tibbiy-genetik savodxonlikni oşiriş, oilaviy hayotga tayyorgarlik böyiça tuşuntiriş işlarini kuçaytiriş zarur.

Buxoro şahar tuğruq kompleksi, 2-tuğruqdan keyingi bölim akuşer-ginekologlari.

Sahifani “BYO” muxbiri Husan Hakimov tayyorladi.

Ilgarilari davlat mukofotlari, kökrak nişonlari hamda orden va medallar faqat köpni körgan, jamiyat hayotida çuqur iz qoldirgan keksa yoşli insonlargagina berilar edi. Bugun esa mustaqillik şarofati bilan köksini yuksak mukofotlar şodasi töldirib turgan yigit-qizlarni körib, qalbimizda faxr tuyğusi jöş uradi.

MUVAFFAQIYAT MUBORAK BOLSIN, YOŞLAR YETAKÇISI!





Zamonamiz yoşlari har bir sohada faollik, taşabbuskorlik va tinimsiz ğayrat-şijoat bilan peşqadamlik qilmoqda. Ayniqsa, yoşlar taşkiloti safida turib, yuzlab, minglab tengdoşlari bilan yelkama-yelka mehnat qilayotgan yoşlar yetakçilarining faoliyatiga nazar taşlab, ularning fidoyiligiga beixtiyor tahsin aytasiz.

Ğijduvon tumanidagi “Ğişti” mahallasi yoşlar yetakçisi Javohir Tilloyev ham ana şunday faol, bilimli va taşabbuskor yoşlar vakilidir. Ma’lumki, “Yetakçi Camp” loyihasi yoşlar yetakçilarining kasbiy salohiyatini oşiriş, boşqaruv könikmalarini rivojlantiriş hamda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanişni örgatişga qaratilgan eng yirik va nufuzli taşabbuslardan biri hisoblanadi.

Mazkur loyihaning 8-mavsumi Javohir uçun ğoyatda zafarli keldi. Uning öquv maşğulotlaridagi faol iştiroki, harakatçanligi, yuksak bilim va zakovati taşkilotçilar hamda iştirokçilarda katta taassurot qoldirdi.



— “Yetakçi Camp” loyihasining 8-mavsumidagi öquv maşğulotlarida asosiy e’tibor sun’iy intellekt imkoniyatlari hamda media savodxonlikni oşiriş masalalariga qaratildi, — deydi malakali trener Abdulaziz Yöldoşev. — Iştirokçilarga sun’iy intellekt vositalaridan unumli foydalaniş, kundalik iş jarayonlarini yengillaştiriş, kreativ ğoyalar işlab çiqiş va zamonaviy axborot texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etiş böyiça zarur bilimlar berildi. Buxorolik yoşlar yetakçisi Javohir Tilloyevning intilişi bizni alohida jalb etdi. U özining yuksak savodxonligi va şijoati bilan boşqalardan yaqqol ajralib turdi. Kelgusida uşbu yetakçidan el-yurt koriga yaraydigan munosib rahbar kadr yetişib çiqişiga şubha yoq.

Maşğulotlar davomida, şuningdek, “Xodimlarni boşqarişda samarali yondaşuv” mavzusida ham darslar taşkil etilib, unda jamoani şakllantiriş, xodimlarni rağbatlantiriş, vazifalarni töğri taqsimlaş hamda zamonaviy boşqaruv usullari yuzasidan qimmatli amaliy tavsiyalar berildi.

Har bir loyihaning öz mavsumiy yakuni va munosib taqdirlaş marosimi bölganidek, “Yetakçi Camp”ning 8-mavsumi ham yorqin muvaffaqiyatlarga boy böldi.

Quvonarlisi, mazkur şiddatli bellaşuvlarda “Ğişti” mahallasi yetakçisi Javohir Tilloyev faxrli birinçi öringa munosib körildi va mavsum ğolibiga aylandi.

Javohir Tilloyevni uşbu yuksak zafar va munosib e’tirof bilan çin qalbdan muborakbod etamiz! Olib borayotgan xayrli va taşabbuskor işlarida, mahalla yoşlarini birlaştiriş va ularning intilişlarini qöllab-quvvatlaş yölidagi fidokorona faoliyatida kuç-ğayrat, sihat-salomatlik va yangidan-yangi zafarlar yor bölişini tilaymiz. Yurtimiz va Buxoro şa’nini yuksaklarga kötaradigan mana şunday bilimli, şijoatli kadrlarimiz safi yanada kengayaversin!

Muvaffaqiyat muborak bölsin, yoşlar yetakçisi!

Dilnavoz Töxtayeva

FIRDAVS – BILIM VA TAŞABBUS YÖLIDA



Yoşlar orasida özlariga berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, kelajagi va millatning ravnaqi uçun hissa qöşişni asosiy maqsad, deb qarayotganlar soni kundan-kunga ortib bormoqda.

Şunday yoşlardan biri hozirda Buxoro davlat universitetida ta’lim olib kelayotgan Firdavs Jörayev. Yoş bölişiga qaramay, ham ta’lim, ham volontyorlik faoliyati bilan shuğullanmoqda.

Şuningdek, u Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti Yoşlar ittifoqi koordinatori, Yoşlar akademiyasi lideri, BuxDU volontyorlar markazi boş koordinatori lavozimida işlamoqda. Öz faoliyatini 2015-yil boşlagan. Oliy ta’lim muassasasiga kirişdan oldin Mudofaa vazirligi hamda volontyorlik sohasida tajriba orttirgan. Köplab yutuqlarga erişgan. Hozirga qadar 10 ga yaqin ilmiy maqola yozgan.

- Men qator tanlovlarda iştirok etdim. “Eko avlod camp” sertifikati, “Bukhara night race” taşakkurnomasi, “Eng faol yil talabasi — 2025” tanlovida “Eng faol tarğibotçi talaba”, “Eng faol ekovolontyor talaba” nominatsiyalari, 2024–2025-yillarda viloyat miqyosida “I hamda II BuxDU volontyorlar forumi” boş taşkilotçisi, “Scientific Publication” ilmiy-matbuot markazi tomonidan taşkil etilgan hamda MDH miqyosida ötkazilgan “Ilm-fan fidoyisi” xalqaro ilmiy-amaliy körik-tanlovi ğolibi hamda kökrak nişoniga sazovor bölganman, — dedi Firdavs Jörayev.

Firdavsning hayotdagi asosiy şiori: “Heç qaçon öz vaqtingni behudaga ötkazmaslik”.

Ayni damdagi asosiy rejalari va maqsadlari turk tili hamda ingliz tillarini örganib, ta’limni magistratura bosqiçida davom ettiriş.

Agar şunday harakatçan, bilimga çanqoq va taşabbuskor yoşlarimiz köpaysa, yurtimiz yanada rivojlanib, taraqqiyot sari dadil qadam taşlaydi.

Şahzoda



YOŞLAR VA VOLONTYORLIK:

EZGULIK YÖLIDAGI QADAMLAR



Jamiyat taraqqiyoti hamda iqtisodiy körsatkiçlar odamlarning bir-biriga ğamxörligi, öz yurti, mahallasi va atrofidagilar taqdiriga befarq bölmasligi bilan ham ölçanadi.

Ayniqsa, yoşlarning ixtiyoriy ravişda ezgu işlarga qöl urişi ijtimoiy mas’uliyat körinişlaridan biri. Şu ma’noda volontyorlik hozirda yoşlarimiz uçun böş vaqtni mazmunli ötkaziş, şuningdek, hayotiy tajriba orttiriş va jamiyatga foyda keltiriş maydoniga aylanmoqda.

2026-yilning sentyabr-oktabr oylarida Buxoro yoşlari turli yönalişdagi tadbirlarda faol iştirok etdi. Viloyat Yoşlar işlari boşqarmasi tomonidan atrof-muhitni asraş, hududimizni yanada obod va toza saqlaş maqsadida eko-plogging taşkil etildi. Plogging — yuguriş yoki sayr qiliş jarayonida çiqindi yiğişdan iborat bölib, soğlom turmuş tarzi bilan ekologik madaniyatni uyğunlaştiradi.



Osiyo xalqaro universitetida viloyat Yoşlar işlari boşqarmasi boşliği Şavkat Rahmonov iştirokida talaba-yoşlar bilan oçiq va samimiy uçraşuv bölib ötdi. Bunday muloqotlar yoşlarning fikri, taklifi va muammolarini bevosita eşitiş, ularni ijtimoiy faollikka ruhlantiriş imkonini beradi.

Yoşlar faolligining yana bir yorqin namunasi Buxoro şahrida ötkazilgan “Aksilkorrupsiya yoşlar kvesti” böldi. Tadbirda Korrupsiyaga qarşi kuraşiş agentligi, Yevropa Ittifoqi, Özbekiston volontyorlar assotsiatsiyasi, GIZ va BMT Taraqqiyot dasturi vakillari iştirok etdi. Kvest şaklidagi bunday tadbirlar halollik, şaffoflik va qonun ustuvorligi kabi qadriyatlarni yoşlarga qiziqarli, jamoaviy izlaniş orqali yetkaziş imkonini beradi. Eng muhimi, korrupsiyaga qarşi kuraş faqat idoralarning emas, butun jamiyatning, birinçi navbatda, yoşlarning işi ekanini anglatadi.

Sanab ötilgan tadbirlarning barçasida men ham faol iştirok etdim. Kasb egallaşga intiliş bilan birga, jamiyat hayotida ham faol qatnaşayotgan yoşlardan biri sifatida öqişdan böş vaqtlarimda Yoşlar işlari boşqarmasining media bölimi bilan hamkorlikda volontyor sifatida faoliyat olib bormoqdaman. “Aksilkorrupsiya yoşlar kvesti”da munosib iştirokim uçun sertifikat bilan taqdirlandim.

Mening bu tajribam öqiş va ijtimoiy faolligimga tösqinlik qilmaydi, aksinça, bir-birini töldiradi. Ayniqsa, tibbiyot yönalişidagi talaba uçun insonlarga yordam berişga tayyorlik, jamoada işlay oliş va favqulodda vaziyatlarda töğri harakat qiliş könikmalari kasbiy şakllanişning ajralmas qismidir.



Mirfayz Fayzullayev,
Osiyo xalqaro universiteti
“Tibbiyot” fakulteti talabasi.

MUASSIS :
ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI YOŞLAR IŞLARI AGENTLIGINING BUXORO VILOYATI YOŞLAR IŞLARI BOŞQARMASI

Bosh muharrir :
Laylo HAYITOVA

BOŞ HAMKOR:
Özbekiston yoşlar ittifoqi Buxoro viloyati Kengaşi

TAHRIR HAY'ATI:
Şavkat Rahmonov
Baxtiyor Adilov
Mirali Hamroyev
Şuhrat Jumayev
Sadoqat Siddiqova
Dilşod Yo‘ldoşev
Mirşod Ochilov

Gazeta Buxoro viloyati Matbuot va axborot boşqarmasi tomonidan 2017 yil 15 dekabrda 05-081 tartib raqami bilan röyxatga olingan.

TAHRIRIYAT MANZILI:
Buxoro şahri, Alişer Navoiy köçasi, 10-uy.

TAHRIRIYAT HISOB-RAQAMI:
20210000404114165001 “Agrobank” Buxoro şahar filiali, MFO: 00089,OKONX: 87100, STIR: 203590296
Naşr körsatkichi: 3051

ISSN 2181-6557

SAHIFALOVCHI - DIZAYNER:
Xurşid Abdullayev

Gazetaning uşbu soni elektron çop etildi.

Bosmaxona manzili:
Qarşi şahri, Mustaqillik şox ko'chasi, 22-uy

Navbatchi muharrir: Zulfizar Mavlonova
Tasvirchi: Husan Hakimov

Hajmi 2 bosma taboq. Qoğoz biçimi A-3. -buyurtma.
Topşirildi — 10:00. Çop etiş vaqti: 11:00
Bahosi kelişilgan narxda 2026 yil

www.buxoro-yoshlari.uz sayti orqali biz bilan birga bўling.